

Baratova Sarvinoz Sherbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi TOSHDO‘TAU 3-bosqich talabasi

Sherbekovna104@gmail.com

+998942054083

RAUF PARFI SHE‘RIYATIDA O‘XSHATISH VA METAFORALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatida alohida mavqe egallagan Rauf Parfi ijodining lingvopoetik tahlili berilgan. Shoir she‘rlarida ishlatilgan o‘xshatish va metaforalar ko‘rib chiqilib, misollar asosida ularning o‘xshash va farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy o‘zbek she‘riyati, lingvopoetik tahlil, o‘xshatish, ko‘chim, metafora.

Abstract: This article analyzes the poetry of Rauf Parfi, a prominent figure in modern Uzbek literature, from a linguopoetic perspective. The focus is on the poet’s use of similes and metaphors, with examples provided to identify their unique and shared characteristics.

Keywords: modern Uzbek poetry, linguopoetic analysis, simile, metaphor.

KIRISH

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yaratilayotgan har bir ijod namunasi o‘ziga xos uslubi va betakror badiiy ifodaliligi bilan qadrlanadi. Bu jarayonda mumtoz adabiyot an‘analari va jahon adabiyotining turli yo‘nalishlaridan ta’sirlar seziladi. Xususan, zamonaviy o‘zbek she‘riyati ham bu yo‘nalishlarning uyg‘unlashgan namunasidir. Rauf Parfi ijodi ana shu uyg‘unlikning yorqin misoli bo‘lib, unda an‘ana va novatorlik bir butunlikda namoyon bo‘ladi – uning she‘rlari an‘anaviy va zamonaviy she‘riyat unsurlarining uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Shoir she‘rlarida o‘xshatish va metaforalar orqali inson ruhiyati, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik badiiy ifoda etiladi. Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodidagi lingvopoetik xususiyatlar, jumladan, o‘xshatish va metaforalar tahlil qilinadi, fikrlar misollar asosida dalillanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Shoir she‘rlarida qo‘llangan o‘xshatish va metaforalar lingvopoetik jihatdan o‘rganildi. Metodik yondashuv sifatida she‘rlarni semantik va stilistik tahlil qilish, an‘anaviy va muallifga xos o‘xshatishlarni qiyoslash usullari qo‘llanildi. Misollar asosida o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, metaforalarning estetik qimmatini yoritildi.

O‘xshatish she‘riyatning qadimiy badiiy vositalaridan biri bo‘lib, ikki narsaning bir-biriga o‘xshash jihatlari orqali mazmunni boyitishga xizmat qiladi. Rauf Parfi o‘z she‘rlarida xususiy-mualliflik o‘xshatishlariga murojaat qilib, ularga yangicha badiiy tus beradi.

Professor N.Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'shatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi kerak bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatning eng nozik jihatlari kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmo'g'i

lozim. Ularning ikki turi: xususiy-muallif o'xshatishlari yoki an'anaviy o'xshatishlar farqlanadi. (M.Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent – 2008) Maqolada Rauf Parfi she'rlarida mana shu o'xshatish turlari va metaforalar tahlili metodi asosida o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Rauf Parfi she'riyatida quyidagi jihatlar aniqlangan:

1. O'xshatishlar: Shoir tabiat tasvirida o'ziga xos mualliflik o'xshatishlarini qo'llaydi. Masalan, yulduzlar "chatnagan orzular" sifatida tasvirlanib, insonning samoviy intilishlarini ifodalaydi:

Yulduzlarga men ham qarayman,

Yulduzlar - samoviy bir xayol.

Men ko'proq zaminga yarayman.

Menga kerak yerdagi hayot.

Yulduzlarga qarayman men ham

Yulduzlar - chatnagan orzular.

Huv miskin kezadir biro dam -

Ko'ksida yonmagan yulduzlar. (Rauf Parfi. Saylanma. Toshkent – 2022)

“Kulrang bulut” she'rida esa kulrang bulutning "uyquga o'xshatilishi" inson ruhiyatidagi sokinlik va tashvishlarning ramzi sifatida talqin etiladi:

Kulrang bulut kezinadi jim,

Kulrang bulut o'xshar uyquga.

Kulrang bulut boshlaydi hujum,

Baqirib shivirlar ruhimga. (Rauf Parfi. Saylanma. Toshkent – 2022)

2. Metaforalar va jonlantirish: Rauf Parfi she'riyatidagi metaforalar voqelikni jonlantirish va unga yangi ma'nolar berishda muhim o'rin tutadi. Bulut, shamol, tuproq kabi unsurlar insonga xos harakatlar va hissiyotlar bilan tasvirlanadi. Bulutlarning “kulishi” yoki yo'lning “surat chizishi” kabi tasvirlar adabiy matnning ifodaviyligini oshiradi:

Suratimni chizib berar yo'l,

Tabassumlar yozilgan tuproq.

Shu o'rinda, ko'chimlarning, jumladan, metaforaning badiiy matndagi estetik qiymati haqida keltirib o'tamiz. Ko'chimlar deyilganda bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish orqali adabiy asarning badiiy qimmatini oshirish

nazarda tutiladi. Ko'chimning bir turi metafora (mumtoz adabiyotshunoslikda istiora deb nomlangan) narsa-buyum, hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi hisoblanadi. Ayrim manbalarda metaforalar mazmuniy jihatdan uch turga bo'linadi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalar. (Ma'rufjon Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent – 2008). Yuqoridagi she'rda uyquga o'xshatilgan kulrang bulut keyingi bandlarda jonlantiriladi. So'ngra butun she'r davomida nafaqat bulut, balki tabiatning boshqa unsurlari ham: yo'l, tuproq, yaproqlar va osmon jonlanib ajib harakatga keladi, shoir ruhiyatiga jo'r bo'lib atrofida kezadi. Bu esa metaforaning bir turi hisoblanuvchi jonlantirish, ya'ni tashxisni yuzaga keltiradi.

Shoir inson his-tuyg'ulari, kechinmalari, so'zlash va fikrlashini jonsiz predmatlarga ko'chirish orqali kitobxonning voqelikka munosabatini faollashtiradi, quruq-rangsiz ifodadan qochadi:

Kulrang bulut kuladi oxir,

Parchalandi shu muallaq ko'l.

G'ir-g'ir shamol, g'ir-g'ir yomg'ir,

Suratimni chizih berar yo'l.

Qalqib-qalqib qo'yadi qarab

Tabassumlar yozilgan tuproq.

Chapak chalib sochini tarab

Bosh yuvadi bir hovuch yaproq.

Yana bulut kezmoqda sarson

Ta'qib etib borar izimdan,

Nafaslarga to'lar bu osmon

Uzilmaydi aslo ko'zimdan...

Keyinga tahlilga tortmoqchi bo'lgan she'r ham bulutning o'zgacha tasviri bilan boshlanadi – shoir original xususiy-mualliflik o'xshatishini qo'llaydi:

Muallaq qo'llardek bulutlar,

Qo'ygan kabi kundaga boshni,

Tashna sahro yomg'irni kutar.

Misrada ifodalanmagan o'xshatish sababini tahlil etsak, bulutlar tashna sahro uchun yomg'ir o'tinib duoga ochilgan qo'llarga mengzalmoqda, Go'zal ifoda davom ettirilib, endi tasvir sahroga ko'chadi, u jonlanadi – go'yoki, tashnalikdan qurib-bitgach kundaga bosh qo'yib o'limini kutmoqda.

3. Falsafiy ramzlar: Shoir bulutlarga murojaat qilib, insonning ichki kechinmalarini, javobsiz savollarini tasvirlaydi. Bu apostrofa usulidan foydalanishning yorqin namunasidir. Metaforaning yana bir ko'rinishi apostrofa bo'lib, bunda shoir jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'ladi, bunda u jonlantirilmaydi, faqat jonlidek tasavvur qilinadi. Quyidagi she'rda ham Rauf Parfi bulutlarga murojaat qilish orqali hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, kechinmalarini ramzli tarzda ifoda etadi, ularni so'roqqa tutish asnosida ba'zi xil insonlarga nisbatan savollar yog'diradi:

Qayga uchmoqdasiz, qayga, bulutlar,

Bugun mehringizni to'kasiz qayga?

Eh, shamol qaylarga sizni irg'itar,

Siz bilan yergami, qandayinjoyga?

Daryo tepasida yig'ilib u kun

Bulut bo'lgandingiz yaxshi niyatda,

Nechun qo'l berdingiz shamolga, nechun.

Nechun qul bo'ldingiz, bulutlar, qayta?

XULOSA

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Rauf Parfi ijodida o'xshatish va metaforalar nafaqat estetik vosita sifatida, balki falsafiy mazmunni chuqurlashtirish uchun ham qo'llaniladi. Shoirning badiiy tasvirlari o'quvchini voqelikning nozik jihatlarini ko'rishga undaydi.

Bu tasvirlarda tabiat unsurlari insoniy xislatlar bilan uyg'unlashadi, bu esa metaforaning jonlantirish shaklini namoyon etadi.

Rauf Parfi ijodi o'zining o'zgacha lingvopoetik uslubi, tasviriy vositalarning boyligi va falsafiy mazmuni bilan zamonaviy o'zbek she'riyatida alohida o'rin tutadi. Shoirning o'xshatish va metaforalari nafaqat badiiy tasvir, balki inson ruhiyati va tabiat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib beruvchi vosita sifatida ham qimmatli. Shu sabab, Rauf Parfi she'rlari barcha davrlarda o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev M. "Badiiy matn lingvopoetikasi" O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent – 2008
2. U.Hamdami. "Erkin badiiy tafakkur va bugungi o'zbek she'riyati" (<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/ulug-bek-hamdami-erkin-badiiy-tafakkur-va-bugungi-o-zbek-she'riyati>)
3. Mahmudov N. "O'xshatishlarning til va nutqdagi o'imi" – Til tilsimi tadqiqi.
4. Quronov D. "Adabiyot nazariyasi asoslari ". Toshkent – 2019

5. Rahmonov N. "O'zbek adabiyoti tarixi". Toshkent – 2017
6. "Saylanma" 1-jild Rauf Parfi "Muharrir" nashriyoti Toshkent – 2022
7. Хатамов Н. , Саримсоқов Б. (1979). Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент – Ўқитувчи. Toshkent: Mumtoz so'z – 2017.